

## O‘ZBEK VA FORS TILLARIDA SIFAT DARAJALARINING QO‘LLANILISHI

**Tillayeva Xurshidaxon Avazekovna**

Farg‘ona viloyati Quva tumani 13- umumiy o‘rta ta’lim  
maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari

**Botirova Ziyodaxon Azamjon qizi**

Email: [ziyodabotirova@mail.ru](mailto:ziyodabotirova@mail.ru)

**Anotatsiya.** Ushbu maqola o‘zbek va fors tillarida sifat darajalari qay tartibda darajalashi korsatilgan. Qarindosh bo‘lmagan tillarda sifat darajalarini oxshash va farqli tomonlari korsatilgan.

**Kalit so‘zlar.** Sifat darajalari, kontrastiv, til oilasi, qarindosh til, leksika, grammatika, izofali, izofasiz.

Bugungi kunda o‘zbek tilshunosligi salmoqli darajada rivojlanib bormoqda. Natijada tilshunoslikda yangi yo‘nalishlar paydo bo‘lmoqda. Shunday yo‘nalishlardan biri kontrastiv (chog‘ishtirma) tilshunoslikdir. Kontrastiv tilshunoslik til oilalariga mansub bo‘lgan tillarni qiyoslab o‘rganadi.

Bir-biriga yaqin, umumiy jihatlari ko‘p bo‘lgan tillar qarindosh, bir-biridan uzoq, umumiy jihatlari bo‘lmagan tillar esa qarindosh bo‘lmagan tillar hisoblanadi. Masalan, o‘zbek, hind. Qarindosh kishilar bir ajdoddan tarqalgani kabi, qarindosh tillar ham bir bobo tildan kelib chiqqandir.

### **Hind-Yevropa tillar oilasi:**

- a)slavyan(rus,ukrain,belarus,chex,slovak,polyak);
- b)german(ingliz,nemis,shved,norveg,island,golland);
- c)roman(fransuz,italyan,ispan,Portugal,rumin,moldavan);

d) boltiq (litva, latish);

e) eron (fors, tojik, afgʻon, osetin);

f) hind (hind, Bengal, panjob, urdu, gujarat)

Oʻzbek va fors tillarini qiyoslab oʻrganish biz tilshunoslarning oldiga katta vazifa qoʻyadi. Bu ikki til leksikasi, grammatikasi oʻziga xos xususiyatga egaligi bilan oʻrganish obyektni belgilaydi. Bunga bu ikki tilde qoʻllaniladigan sifat darajalarini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Belgining ortiq yoki kamlik jihatdan farqlanishi sifat darajalari, ana shunday maʼno ifodalovchi shakllar esa daraja shakli deyiladi.<sup>87</sup>

Sifatlar belgini ifodalashiga koʻra uch darajaga ajratiladi:

a) oddiy b) ozaytirma c) orttirma<sup>88</sup>

Misollar:

**Bultur bahorda eshigimiz oldidagi gullarni sugʻoroyotgan edim, yap- yangi “Mosvkich” kelib toʻxtadi.** ( Oʻtkir Hoshimov asarlaridan)

**Hovli tor, devorlari baland, xuddi kattakon hovuzga oʻxshar, buning ham toʻrtidan birini ayvon egallagan edi** (Abdulla Qahhor)

**Usta qarigina, burni choʻtirroq, juda soʻzamol, mahmadona kishi.** ( Oybek)

Malik Abdusamatovning “Fors tili” darsligida sifat darajalariga quydagicha taʼrif berilgan:

“Da raja koʻrsatish sifatlarga xos xususiyat boʻlib, bu sifatlarni boshqa soʻz turkumlaridan ajratib koʻrsatadigan asosiy belgisidir.

Fors tilida sifatning uch darajasi mavjud: a) oddiy b) chogʻishtirma c) orttirma”

Masalan: -خوب- xub – yaxshi

بد – bad – yomon

بزرگ - boʻzorg- katta

Yuqorida keltirilgan خوب- xub – yaxshi, بد – bad – yomon, بزرگ - boʻzorg- katta forsha sifatning oddiy darajasidagi misollar boʻlib, huddi oʻzbek tilidagi oddiy daraja sifatlari bilan bir xil.

<sup>87</sup> N.Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov., 6-sinf ona tili. Toshkent; Maʼnaviyat 2007.

<sup>88</sup> A. Nurmonov. A. Sobirov. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Ilmi ziyo: 2013

O‘zbek tilida belgining ortiqligini, kuchliligini bildirgan sifatlar ortirma darajadagi sifatlar deyildi.<sup>3</sup> ortirma darajadagi sifatlar uch xil usul bilan yasaladi:

a) oddiy darajadagi sifatlarning birinchi bo‘g‘inidagi oxirgi undoshning m va p ga almashtirish bilan;

ko‘m- ko‘k, sap-sariq.

b) tarkibidagi birinchi unlini cho‘zish yo‘li bilan;

achchiq- a:chchiq, shirin- shi:rin.

c) sifat oldidan juda, g‘oyat, nihoyatda, behad so‘zlarini qo‘llash bilan; yaxshi - juda yaxshi.

Fors tilida esa orttirma daraja sifatleri oddiy daraja sifatiga تارین tarin affiksini qo‘shish bilan yasaladi.<sup>4</sup>

Misollar; بزرگ - bo‘zorg- katta بزرگترین – bo‘zorgtarin- eng katta

بد –bad –yomon بدترین - badtarin- eng yomon

Orttirma darajadagi sifatdan so‘ng kelgan so‘z ko‘plik shaklida kelsa, ikki xil o‘qilishi va ikki ma`no bildirishi.<sup>5</sup> masalan,

ها فشنگ ترین هتل ها -qashangtarin hotelho- eng chiroyli mehmonxonalar

ها فشنگ ترین هتل ها -qashangtarin-e hotelho- Mehmonxonalarning eng chiroylisi

Fors tilida orttirma darajadagi sifatni izofali yoki izofasiz o‘qish katta ahamiyatga ega. Yuqoridagi ikki gap ma`no jihatda farq qiladi. Birinchi gapda (orttirma darjadagi sifat izofasiz o‘qilsa) bir jinsdagi predmetni eng yuqorisifati haqida xabar berilsa, ikkichi gapda esa yuqori sifatga ega bo‘lgan shu jinsdagi predmetlardan biri ajratib ko‘rsatilganligi haqida bayon qiladi.

O‘zbek tilida sifatning orttirma darajasini yasashda yuqoridagi holat kuzatilmaydi.

O‘zbek tilidan farqli o‘laroq fors tilida o‘zak o‘zgarishi bilan hosil qilinadigan sifatlar bor. -خوب-xub – yaxshi sifatidan chog‘ishtirma va orttirma darajalar bu so‘zning ekvivalenti bo‘lmish به beh so‘zidan hosil bo‘ladi.

Masalan,

-خوب-xub – yaxshi, بهتر -behtar-yaxshiroq, بهترین-behtarin- eng yaxshi

Yuqoridagi misoldan ko‘rinib turibdiki, fors tilida sifatlar darajalanayotganda o‘zak o‘zgarishi bilan ham hosil bo‘ladi. — خوب so‘zi oddiy darajadagi sifat, chog‘ishtirma yoki orttirma darajadagi sifat yasaydigan bo‘lsa, به beh so‘ziga تر tar, ترين tarin affikslarini qo‘shish bilan yasaladi.

Bundan ko‘rinadiki, o‘zbek va fors tillarida sifat darajalarining turlari bir xil ammo, orttirma darajadagi sifat va o‘zak o‘zgarishi bilan hosil qilinadigan sifatlar bilan farqli tomonlari bor. Shuning uchun bu tillardagi sifat darajalarini leksik va morfemik tasniflash, shuningdek, ularni qiyosiy o‘rganish hali tadqiq qilinishi kerak bo‘lgan masaladir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. T., O‘qituvchi, 1992.
2. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. O‘zbek tili. T., O‘qituvchi, 1978.
3. Mirzayev M. va boshqalar. O‘zbek tili. T., 1978. –B.17-26.
4. Mirtojiyev M. O‘zbek tilida polisemiya. Toshkent, 1975.
5. N.Mahmudov, A.Nurmonov, A .Sobirova 6- sinf ona tili. Toshkent,. Ma’naviyat 2013.
6. A.Sobirova. A.Nurminov,. Hozirgi o‘zbek tili. Ilmi ziyo;2013
7. Malik Abdusamatov. Fors tili darslik,. Sharq. 2013.